

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARI ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Qishloq xo'jalik hayvonlari anatomiyasi va fiziologiyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Qishloq xo'jalik hayvonlari anatomiyasi va fiziologiyasi

1. Tayanch harakatlanish sistemasi organlarining anatomik tuzilishi;
2. Ovqat hazm qilish organlarning anatomik tuzilishi;
3. Nafas olish organlarning anatomik tuzilishi;
4. Siydik ayirish organlarining anatomik tuzilishi;
5. Yurak-qon tomirlar tizimi organlarining anatomik tuzilishi;
6. Qon hosil qiluvchi organlarining anatomik tuzilishi;
7. Hayvonlarda nerv sistemasi organlarining anatomik tuzilishi;
8. Hayvonlarda endokrin sistemasi organlarining anatomik tuzilishi;
9. Vegetativ nerv tizimini tuzilishi;
10. Sezgi organlari (analizatorlar)ni anatomik tuzilishi;
11. Parrandalar, mayda uy hayvonlari va laboratoriya hayvonlarining anatomiyasi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalari va konstruktur

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Tayanch harakatlanish sistemasi organlarining anatomik tuzilishi.Gavda muskullari	Anatomik atamalar, tana qismlari, tana kesimlarni, modulning rivojlanish tarixini, o‘q suyaklari va umurtqani tuzilishi, umurtqalar, qovurg‘a va to‘sh suyagini tuzilishi, bosh suyagini tuzilishini, oldingi oyoq suyaklarini tuzilishi, orqa oyoq suyaklarini tuzilishini, gavda muskullari, oldingi oyoq muskullari haqida bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish.	22.5 %	9 ta
2	Ovqat hazm qilish organlarning anatomik tuzilishi.	Bosh bo‘lim ichaklarini tuzilishi, qishloq xo‘jalik va uy hayvonlarini hazm organlarini anatomik tuzilishi, lab, lunj, milk, tanglay, til, tish, halqum va so‘lak bezlarining topografiyasi va tuzilishini, oldingi bo‘lim ichaklarini tuzilishi, qishloq xo‘jalik hayvonlarida qizilo‘ngach, bir va ko‘p kamerali oshqozonni tuzilishi, oshqozon tiplari va topografiyasini o‘rganish, o‘rta va keyingi bo‘lim ichaklarini tuzilishini, ingichka(o‘n ikki barmoq, achchiq, yonbosh) va yo‘g‘on (chambar, ko‘r, to‘g‘ri) ichaklarning anatomik tuzilishi va topografiyasi haqida bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish.	15 %	6 ta
3	Nafas olish organlarning anatomik tuzilishi. Burun, burunbo‘shlig‘i, hiqildoqni tuzilishi Kekirdak va o‘pkani tuzilishi.	Burun, burun bo‘shlig‘i, hiqildoqni tuzilishi nafas yo‘llari: burun, burun bo‘shlig‘i, hiqildoqning anatomik tuzilishini o‘rganish, topografiyasi, har xil turga mansub bo‘lgan hayvonlardagi o‘ziga xos tafovutlari haqida bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish. Kekirdak va o‘pkani tuzilishi kekirdak, uning halqalari, o‘pkaning anatomik tuzilishi va topografiyasi, hayvonlardagi farq qiluvchi jihatlarini bilish va ko‘nikmaga ega bo‘lish.	7.5 %	3 ta
4	Siydik ayirish organlarining anatomik tuzilishi.Hayvonl arda jinsiy organlar tuzilishi	Siydik ayirish organlari tizimi: buyrak, siydik yo‘li, qovuq, siydik chiqarish kanali hamda siydik jinsiy kanalini tuzilishi va topografiyasi haqida bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish. Har xil hayvonlarning (sigir, qo‘y, echki, cho‘chqa, it va baytal) urg‘ochilik jinsiy organlarini (tuxumdon, tuxum yo‘lini) anatomik tuzilishi va topografiyasini, har xil hayvonlarning (sigir, qo‘y, echki, cho‘chqa, it va baytal) urg‘ochilik jinsiy organlarini (bachadon, qin, siydik jinsiy dahlizi) anatomik tuzilishi va topografiyasini,	20 %	8 ta

		urug‘don xaltasi, yorg‘oq, urug‘don, urug‘don ortig‘ining tuzilishini bilish.		
5	Yurak-qon tomirlar tizimi organlarining anatomik tuzilishi	Qon aylanish tizimini anatomik tarkibi, qon aylanish doirasi, yurak va yurak kuylakchasini tuzilishi, yurakni klapan apparati, yurak topografiyasi, yurakni qishloq xo‘jalik hayvonlaridagi farqini o‘rganish. Katta qon aylanish doirasi arteriyalari, yurakdan chiqadigan aorta tomiri, uni tarmoqlanishi, bo‘yin, oldingi oyoq va bosh sohasining magistral va asosiy arteriya tomirlari va ularning qon bilan ta‘minlash sohalari. Qon aylanish tizimini anatomik tarkibi, ko‘krak, qorin va orqa oyoq arteriyalari tarmoqlanishi va topografiyasi. Tanadagi asosiy vena tomirlari, oldingi kovak vena va orqa kovak venalarini hosil bo‘lishi, toq vena, jigarning qopka venasi va sut venasining topografiyasi haqida bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish.	12.5 %	5ta
6	Qon hosil qiluvchi organlarining anatomik tuzilishi.	Limfa aylanish tizimini ahamiyatini o‘rganish, limfa suyuqligi, limfa tomiri tuzilishi, joylashishi, limfa tugunlari va uning anatomik tuzilishi joylashishi, limfa yo‘llarining tuzilishi va topografiyasi, turli hayvonlarda taloqning tuzilishi, hajmi farq qiluvchi xususiyatlarini, qizil ilik haqida bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish lozim.	10 %	4 ta
7	Hayvonlarda nerv sistemasi organlarining anatomik tuzilishi.	Har xil hayvonlarda orqa va bosh miyasini uning pardalari, bo‘shliqlari, qismlari va topografiyasi, bo‘yin, ko‘krak, bel, dumg‘aza va dum nervlari; elka, bel va dumg‘aza chigali nervlari, bosh miya nervlari (sezuvchi, harakatlanuvchi, aralash va sayyor nerv tarmoqlari) innervatsiyasi va topografiyasi, vegetativ nerv tizimining bo‘linishi, markazlarini joylashuvi, chiqish yo‘llari, nervlarning topografiyasi, innervatsiyasi, tugunlari va qismlari haqida bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish lozim.	5 %	2 ta
8	Parrandalar, mayda uy hayvonlari va laboratoriya hayvonlarining anatomiyasi.	Uy parrandalarining anatomik tuzilishi: parrandalarning skeleti, muskullari, teri qoplamasi, ovqat hazm qilish organlari, nafas olish, siydik ayirish, ko‘payish, yurak-qon tomirlari, nerv tizimi va sezgi organlarining	7.5 %	3 ta

		boshqa hayvonlardan farqli xususiyatlari haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish.		
--	--	--	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	30 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	32.5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	37.5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Narziyev D.X. Hayvonlar anatomiyasi. Toshkent, 1986.
2. Юдичев Ю.Ф. и др. Анатомия домашних животных. Омск, 2003.
3. Климов А.Ф., Акаевский А.И. Анатомия домашних животных. Санкт-Петербург. Москва. Краснодар, 2003.
4. Акаевский А.И. и др. Анатомия домашних животных. Москва, 1986.
5. Лебедев М.И. Практикум по анатомии сельскохозяйственных животных. Ленинград, 1973.
6. Ibragimov Sh.I. va boshqalar. Sitologiya, gistologiya va embriologiya. Toshkent, 2006.
7. Allamurodov M.X. va Dilmurodov N.B. Hayvonlar anatomiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Samarqand, 2005.
8. Dilmurodov N.B. O‘zbekistonning turli ekologik sharoitlaridagi qo‘ylar avtopodiy suyaklari postnatal ontogenezi. Vet.fan.dok. diss. ...-Samarqand, 2011. – 297 b.

Internet ma’lumotlari:

www. Ziyo.net.uz.

e mail: zooveterinarya@ mail.ru

e mail: sea@mail.net21.ru

e mail: veterinary@actavis.ru

e mail: fvat@academy.uzsci.net